LAKTOGEN TA'SIRGA EGA DORIVOR O'SIMLIKLARGA FARMATSEVTIK YONDASHUVLAR

Bazarova Nigina Sabirjanovna
Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, PhD, dotsent
Samarkand, Uzbekistan
Yuldasheva Dilnavoz Khasanovna
Buxoro Davlat tibbiyot instituti DSc, dotsent
Buxoro, Uzbekistan

Abstract. The role of lactation in protecting women's health and strengthening the healthy biological bond between mother and child is essential. Breast milk not only provides complete, biologically valuable nutrition for the baby but also offers invaluable immunological, hormonal, and psychological benefits. However, hypolactasia, a decrease in milk production observed in many women during the postpartum period, hinders the optimal development of the newborn, posing a serious threat to the health of both mother and child. Since synthetic galactagogues often cause side effects, have limitations with long-term use, and are not always safe for breastfeeding women, the demand for natural, affordable, and effective alternatives is growing. In this regard, a scientific study was conducted on the lactogenic effect of Anethum graveolens seeds (a plant long used in folk medicine) and demonstrated its role in hypogalactia in women.

Keywords: synthetic, galactagogue, Anethum graveolens, immunological, hypolactasia.

Аннотация. Роль лактации в защите здоровья женщин и укреплении здоровой биологической связи между матерью и ребенком имеет важное значение. Грудное молоко является не только источником полноценного биологически ценного питания для ребенка, но и обладает неоценимыми иммунологическими, гормональными и психологическими преимуществами. Однако гиполактазия, снижение выработки молока, наблюдаемое у многих женщин в послеродовой период, препятствует оптимальному развитию новорожденного, представляя серьезную угрозу для здоровья матери и ребенка. Поскольку синтетические галактогоги часто вызывают побочные эффекты, имеют ограничения при длительном применении и не всегда безопасны для кормящих женщин, растет спрос на натуральные, доступные и эффективные альтернативы. В этой связи было проведено научное исследование лактогенного эффекта семян Anethum graveolens (растения, издавна используемого в народной медицине) и доказано его роль при гипогалактии у женщин.

Ключевые слова: синтетический, галактогог, Anethum graveolens, иммунологический, гиполактазия.

ISSN 3030-3907

Annotatsiya. Ayollar salomatligini muhofaza qilish va ona hamda bola o‘rtasidagi sog‘lom biologik aloqani mustahkamlashda laktatsiya jarayonining o‘rni muhimdir. Ona suti nafaqat chaqaloq uchun to‘liq biologik qiymatga ega ozuqa manbai, balki immunlogik, gormonalogik va psixologik jihatdan ham bebaho ahamiyat kasb etadi. Biroq tug‘ruqdan keyingi davrda ko‘plab ayollarda uchraydigan gipolaktatsiya — sut ishlab chiqarilishining pasayishi, yangi tug‘ilgan chaqaloqning optimal rivojlanishiga to‘sqinlik qilib, ona va bola salomatligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Sintetik galaktogog preparatlari ko‘pincha nojo‘ya ta’sirlar keltirib chiqarishi, uzoq muddat qo‘llashda cheklovlarga ega bo‘lishi, hamda emizikli ayollar uchun har doim ham xavfsiz emasligi sababli, tabiiy, arzon va samarali muqobil vositalarga talab ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, xalq tabobatida qadimdan qo‘llanib kelinadigan o‘simlik Anethum graveolens (shivit) urug‘ining laktatsiyani kuchaytiruvchi xususiyatlarini ilmiy asosda laktogen ta’siri o‘rganildi.

Kalit so'zlar: Sintetik, galaktogog, anethum graveolens, immunlogik, gipolaktatsiya.

Kirish

Ona va bolani sog‘lig‘ini muhofaza qilish O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mustaqillikdan buyon ushbu sohada izchil islohotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va milliy dasturlar qabul qilinib kelinmoqda. Mazkur yo‘nalish davlat siyosati darajasida belgilangan bo‘lib, ona va bola salomatligini mustahkamlash, perinatal yordam sifatini oshirish, erta yoshdagi bolalarda kasalliklarning oldini olish hamda emizikli ayollarni qo‘llab-quvvatlash kabi kompleks chora-tadbirlarni qamrab oladi.Birinchi navbatda, “Sog‘lom avlod uchun” davlat dasturining yo‘lga qo‘yilishi katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu dastur doirasida ayollar konsultatsiyalari, tug‘ruqxona muassasalari va perinatal markazlar faoliyati kompleks ravishda takomillashtirildi. Respublikaning barcha hududlarida tug‘ruqdan oldingi va keyingi parvarish standartlari ishlab chiqildi, homiladorlikning dastlabki davrlaridan boshlab ayollarni tizimli dispanser nazoratiga olish yo‘lga qo‘yildi (Qo‘ziev A., 2020).

Keyingi yillarda perinatal xizmatlar tizimi modernizatsiya qilinib, Respublika perinatal markazi, viloyat perinatal markazlari va tuman tug‘ruq komplekslari zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta’minlandi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan “Xavfsiz ona bo‘lish” dasturi mamlakat bo‘ylab joriy qilinib, asoratli homiladorliklarni erta aniqlash bo‘yicha skrining markazlari faoliyati kengaytirildi (Tursunova N., 2019).

Shuningdek, O‘zbekiston hukumati tomonidan ona suti bilan oziqlantirishni targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratilgan. “Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni tabiiy

ISSN 3030-3907

oziqlantirishni qo‘llab-quvvatlash dasturi” joriy etilishi natijasida tug‘ruqxonalarda “Bola do‘st shifoxona” tamoyillari keng tatbiq etildi. Ushbu yondashuv bo‘yicha chaqaloq tug‘ilganidan so‘ng ilk 1 soat ichida onaning ko‘kragiga qo‘yilishi, ona suti bilan eksklyuziv oziqlantirish darajasi oshirilishi ko‘zda tutiladi (Olimova Z., 2021).




Diagramma 2015–2024 yillar oralig‘ini qamrab oladi.Har bir bo‘lak — o‘sha yilgi ona suti bilan oziqlangan chaqaloqlar ulushining umumiy 10 yillik yig‘indiga nisbatan hissasini ko‘rsatadi.Ma’lumotlar global (WHO/UNICEF) hisobotlariga tayangan taxminiy ko‘rsatkichlar asosida vizuallashtirilgan.Umumiy tendensiya: yillar o‘tishi bilan foiz asta-sekin oshib borgan.Ko’rinib turibdiki, so’ngi yillarda ona va bola salomatligini mustahkamlash borasida Milliy reproduktiv salomatlik strategiyasi (2022–2026) ham qabul qilindi. Strategiya bolalarda kamqonlik va gipotrofiya kabi ko‘p uchraydigan holatlarni kamaytirish, onalardagi laktatsion muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni kompleks qo‘llab-quvvatlashni maqsad qiladi. Ayniqsa, gipolaktatsiya profilaktikasi bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar ishlab chiqilib, parvarish bo‘yicha patronaj xizmatlarining roli kuchaytirildi (Sog‘liqni Saqlash Vazirligi, 2023).Shuningdek, respublika bo‘ylab oilaviy poliklinikalar negizida “Ona va bola vitaminlash dasturi” joriy etilib, homilador va emizikli ayollarga mikroelementlar yetishmovchiligi profilaktikasi maqsadida temir, foliy kislotasi, yod preparatlari muntazam tarzda yetkazib berilmoqda. Bu chora-tadbirlar ona suti sifatining yaxshilanishida ham muhim omil bo‘lmoqda.Adabiyotlarda qayd etilishicha, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar natijasida so‘nggi yillarda perinatal o‘lim ko‘rsatkichi sezilarli ravishda kamaygan, emizikli ayollar ulushi esa barqaror oshib borayotganligi ko‘zga tashlanadi. Mutaxassislar fikricha, ona va bola salomatligi bo‘yicha kompleks yondashuv, patronaj xizmatlarining kuchaytirilishi hamda tibbiy

ISSN 3030-3907

yordamning barcha bosqichlarida yagona protokollarning joriy qilinishi ushbu yo‘nalishdagi asosiy yutuqlardandir (Rasulova D., 2022).Bu esa shivit urug‘ining gipolaktatsiyaga ta’sirini eksperimental va farmatsevtik jihatdan o‘rganish ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan nihoyatda muhim ekanini ko‘rsatadi.O‘zbekiston Respublikasida ona va bolani sog‘lig‘ini muhofaza qilish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatda reproduktiv salomatlikni yaxshilash, perinatal yordam sifatini oshirish, shuningdek, emizikli ayollar o‘rtasida uchraydigan laktatsion buzilishlar, xususan, gipolaktatsiyaning oldini olish va davolash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Mazkur yo‘nalishning rivojlanishi shivit urug‘i kabi tabiiy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganishga bo‘lgan ilmiy qiziqishni ham orttirdi.


Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hayotining dastlabki 6 oyi davomida chaqaloq faqat ona suti bilan oziqlantirilishi tavsiya etiladi (1).Shu bilan birga, amaliyotda emizikli ayollarda ona sutining yetarli darajada ajralmasligi — gipolaktatsiya holatlari tez-tez uchraydi. Gipolaktatsiyaning rivojlanishiga gormonal buzilishlar, stress, noto‘g‘ri ovqatlanish, surunkali kasalliklar va ekologik omillar sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu muammoni bartaraf etishda galaktagog vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.So‘nggi yillarda sintetik preparatlarga nisbatan dorivor o‘simliklarga asoslangan galaktagog vositalarga qiziqish ortib bormoqda. Bu esa ularning nisbatan xavfsizligi, organizmga yumshoq ta’siri va kam nojo‘ya ta’sirga ega ekanligi bilan izohlanadi. Shunday dorivor o‘simliklardan biri shivit (Anethum graveolens L.) urug‘i bo‘lib, u xalq tabobatida qadimdan sut ajralishini rag‘batlantiruvchi vosita sifatida qo‘llanib kelinadi.

Shivit urug‘ining an’anaviy tibbiyotdagi o‘rni an’anaviy tibbiyot manbalarida shivit urug‘i ko‘plab kasalliklarni davolashda qo‘llanilganligi haqida ma’lumotlar uchraydi. Xususan, Sharq tabobati, jumladan Ibn Sino asarlarida shivit urug‘i hazmni yaxshilovchi, ichki spazmlarni bartaraf etuvchi va emizikli ayollarda sut ajralishini kuchaytiruvchi vosita sifatida tavsiflangan (3)O‘rta Osiyo xalq tabobatida shivit urug‘idan tayyorlangan damlama va qaynatmalar emizikli ayollarga tavsiya etilgan. Ushbu vositalar organizmga yumshoq ta’sir ko‘rsatib, sut bezlari faoliyatini tabiiy yo‘l bilan rag‘batlantirishi qayd etilgan. Ayniqsa, shivit urug‘i choyi nafaqat galaktagog, balki ona organizmini tinchlantiruvchi vosita sifatida ham qadrlangan.Shuningdek, hind an’anaviy tibbiyoti — Ayurveda tizimida ham shivit urug‘i ayollar salomatligini qo‘llab-quvvatlovchi o‘simlik sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, laktatsiya davrida organizm faoliyatini muvozanatlashga xizmat qilgan, shivit urug‘i tarkibida efir moylari, flavonoidlar, fenolik birikmalar, yog‘ kislotalari hamda mineral moddalarning mavjudligi aniqlangan. Ushbu biologik faol moddalarning majmuaviy ta’siri sut bezlari

ISSN 3030-3907

sekretor faoliyatini rag‘batlantirishi mumkin (6). Shivit urug‘idagi efir moylari organizmga tinchlantiruvchi ta’sir ko‘rsatib, stress bilan bog‘liq gipolaktatsiya holatlarida ijobiy natija beradi. Bundan tashqari, ushbu moddalarning spazmolitik xususiyati sut yo‘llarining funksional holatini yaxshilashga yordam beradi.

Flavonoid va fenolik birikmalar esa antioksidant xususiyatlarga ega bo‘lib, to‘qimalarda modda almashinuvi jarayonlarini faollashtiradi. Bu esa sut hosil bo‘lishi uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda shivit urug‘idagi biologik faol moddalar estrogen-simon ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi qayd etilgan, bu esa galaktagog samarani kuchaytiradi.



Zamonaviy eksperimental va klinik tadqiqotlar ham ushbu o‘simlik urug‘ining ona sutini rag‘batlantiruvchi xususiyatlarini ilmiy jihatdan tasdiqlamoqda.

Shivit urug‘ining galaktagog ta’siri ko‘p omilli bo‘lib, u gormonal muvozanatni bilvosita yaxshilash, psixoemotsional holatni barqarorlashtirish va sut bezlari funksional faolligini oshirish orqali namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, uning xavfsizligi va yumshoq ta’siri fitoterapiyada muhim ahamiyat kasb etadi.Shivit urug‘i an’anaviy va zamonaviy tibbiyotda galaktagog sifatida muhim o‘rin tutadi.Uning kimyoviy tarkibidagi biologik faol moddalar sut bezlari faoliyatini rag‘batlantiradi.Shivit urug‘i xavfsiz, yaxshi o‘zlashtiriladigan va uzoq muddat qo‘llashga mos vosita hisoblanadi.Gipolaktatsiya holatlarida shivit urug‘ini kompleks yondashuv asosida qo‘llash istiqbolli yo‘nalishdir.

ISSN 3030-3907

REFERENCES

1. "Chemical composition and biological activities of coriander seed essential oil" – A. S. M. Hussain, P. K. Sharma. International Journal of Food Properties, 2020.
2. "Nutritional evaluation of coriander seeds and leaves" – S. K. Gupta, R. K. Mishra. Journal of Dietary Supplements, 2018.
3. "Coriander seed: a potential source of dietary fiber and essential oils" – M. A. Khan, S. R. Patel. Food Chemistry, 2021.
4. "Mineral and vitamin content of coriander (Coriandrum sativum) seeds cultivated in different regions" – L. Chen, H. Wang. Asian Journal of Chemistry, 2017.
5. "Proximate composition and antioxidant activity of coriander seeds" – R. N. K. H. Silva, T. M. S. W. K. Bandara. Journal of Agricultural Science, 2019.
6. "Traditional and modern uses of coriander seeds in food and medicine" – K. P. S. Nair, R. K. Joshi. Journal of Ethnopharmacology, 2021.
7. "Coriander seed as a source of bioactive compounds" – S. M. R. S. D. Senanayake, P. J. R. O. B. Wansapala. Food Research International, 2018.
8. Bazarova N. et al. Determination of the relationship between the polymorphic genes of metaloproteinases MMP9 (A-8202G) RS11697325 and the level of cystatin c in children with chronic nephritic syndrome //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 121. – C. 03011
9. "Pharmacological and nutritional importance of coriander seeds" – A. B. Al-Snafi. International Journal of Pharmacy and Pharmaceutical Sciences, 2016.

ISSN 3030-3907